



"BOLALAR TARBIYASIGA - IJTIMOY NAZAR, BOLA O'ZLIGINI NUQSONLARSIZ SHAKLLANTIRISH"

Xoshimova Mohinur Baxtiyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7451587>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2022

Accepted: 15th December 2022

Online: 17th December 2022

KEY WORDS

UNICEF, bola, tarbiya, nasil, muhir, ijtimoiylashuv, bola ruhiyati, ta'lim, o'zlik, ota-ona istaklari, bolalik dunyosi, ishonch hissi, shaxsiyat, kamolot, ma'naviyat.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasi va UNICEF bilan birgalikdagi hamkorlik mobaynida, yurtimizda voyaga yetayotga bolalar uchun qaratilgan ijtimoiy siyosatning mohiyati. Bolalar ulg'ayish davridagi ijtimoiylashuvning ahamiyati, bu boradagi muammolarni bartaraft etish yo'llari. Yosh ota-onalarning farzand tarbiyasida yo'l qo'yayotgan kamchiliklari. Kamolotga yetishish davrida, bola "o'zligini" shakllantirish mazmuni.

"O'zingizni bolalarga bag'ishlang! Muhabbat va bardosh bola uchun eng yaxshi terapiya". Ron Xabbart.

Bugungi o'sib kelayotgan bolalar, O'zbekistonning keyingi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib, chiqadigan avlod bo'lishlari mumkun. Shunday ekan ularning tarbiyasi va kamoloti yo'lida, barcha izlanishlarni amalga oshirish, davlat ijtimoiy hayotidagi eng muhim masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992- til 9-dekabrdagi 757-XII sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" da, "bola agar u jismoniy va aqliy jihatdan komolotga yetmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin tug'ulguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj" ekanligi e'tirof etiladi. Bolaning shaxsi sog'lim va har tomonlama ulg'ayishi uchun u oila g'amxo'rlida, baxt, mehr-

muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi, zarurligini unutmash lozim. Farzand umrning eng laziz ne'mati, ko'zlar qarog'i, hayot mazmuni. Barcha ota-onalar farzandining chaqaloqligidan boshlab ulg'aygunicha uning tarbiyasida nimalarga kechikmasligimiz kerak? nimalarga kechikib qo'ydik? xatolarni tuzata olamizmi degan savollarni o'zlariga bera olishlari darkor. Barcha bolalarda bir daxo yashaydi. Ularning kim bo'lib voyaga yetishlari esa kattalarning munosabati va tarbiyasi mahsulidir. Tarbiya jarayonida bolaning qiziqishlari va istaklari bilan ham hissoqlashish kerak. Bola oppoq qog'oz misoli unga yozilgan "yozuvni" o'chirishning iloji yo'q. Deyarli barcha xalqlar, millatlar bolalar tarbiyasida bir qancha qarashlarga egalar. Xususan O'zbek xalqi ham bolajon bo'lib, tarbiyaga oid ayrim qarashlari ega. Biroq "Globalashuv" va "Ommaviy madaniyat" ta'sirida unib, o'sib kelayotgan farzandlarimizning



bolalik fitratini, o'zligini yo'qotib borayotganga o'xshaymiz. Bolalarni tushunish va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun ham eng avvalo ota-ona ilimli, to'g'ri va ijobiy fikrlaydigan bo'lishlari kerak. Shuni unutmashimiz joiz-ki. Biz har kuni uxlaganida ustini yopib qo'yayotganimiz o'sha kichkina bola, urug'i yerga qadalgan katta daraxt misolidir. Kuni kelib urug' yoriladi va undan o'qituvchilar, me'morlar, advokatlar va shifokorlar chiqadi.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasida ham bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni turli qiyin hayotiy vaziyatlar orqali xavf guruhiga tushib qolishlarini oldini olish, borasida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlar UNICEF tomonidan turli dasturlar asnosida tashkil etilayotganligini ham e'tirof etish o'rinli. Umuman olganda bola ya'ni (0 - 14, 18) yoshgacha bo'lgan bola har qanday himoyaga muhtoj hisoblanadi. UNICEF 70 yil dunyoda va 24 yil mobaynida O'zbekistonda bolalarga yordam berib kelayotgan yetakchi global tashkilot sanaladi. Bugungi kunda dunyo aholisining 30% dan oshig'ini bolalar tashkil etadi. UNICEF va boshqa bir qator xalqaro darajadagi, qonunlar asnosida dunyo bolalariga turfa yo'nalishlarda, yordam ko'rsatilmoqda. Dunyo bo'ylab katta qiyinchiliklar mavjudligiga qaramay UNICEF xodimlari har bir bolaning ovqatlanishi, tabiiy ofatlardan, zo'ravonliklardan himoya qilishi va tenglik huquqlarini amalga oshirish uchun ishlab kelmoqda. UNICEF O'zbekiston Hukumati bilan birgalikda, ona va bola salomatligi, sifatli tibbiy tizimlarni takomillashtirishda hamkorlik qilmoqda. UNICEF va Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Yevropa Komissiyasi bilan hamkorlikda moliyalashtirilgan, "

O'zbekiston onalik va bolalikni muhofaza qilish xizmatlari" ni takomillashtirish dasturining 1 va 2 bosqichlarini amalga oshirmoqda. Bu dastur asosida Sog'liqni Saqlash sohasidagi 25000 dan ortiq mutaxassislar texnik bilim va malakalari oshirildi. Aynan " Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvatishlab, sog'aytirish va bolalar orasida kop'lab uchraydigan kasalliklarni davolash va bolalar o'limini oldini olish", loyhaviy dasturlari e'tiborga loyiq. Yurtimizda bolalar huquqlarini himoya qilishi, ularni ta'lim - tarbiya olishlari, sog'liqlarini tiklash, borasida ham arzugulik ishlar qilinmoqda. Islohatlarga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2020.yildagi PQ - 4736-son "Bola Huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorni keltirishimiz mumkun. Bu boradagi yana bir mazmunli ish bu 2019-yil 21- 22 noyabr, kunlari Toshkentda "O'zbekistonda bolalar va oilalar farovonligini ta'minlashda, ijtimoiy ishni mustahkamlash" mavzusida forum bo'lib o'tgan bo'lib, forumda Respublikada bolalarning ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen Yolg'iz Emassan", jamg'armasi, " Oila" markazi, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi, Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirliklari, O'zbekiston Milliy Universiteti va UNICEF vakillari, ijtimoiy sohaning turli jabhalarida ishlayotgan mutaxassislar, jumladan xalqaro va mahalliy ekspertlar, siyosatchilar, davlat idoralari vakillari, tadqiqotchi va amaliyotchilari ishtirok etgan edilar. Forum doirasida bir qator amali ishlar, belgilangan edi. Bugungi kunda bu ishlar o'z amaliy natijalarini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2022- yil 1-yanvar holatiga yurtimizda (0-14) yoshdagi



jami bolalar soni 10 million 518ming 483 nafarni tashkil etadi. Ulardan o'g'il bolalar soni 5451220 nafarni, qiz bolalar esa 5067263 nafarni tashkil etadi. O'zbekistonda 18 yoshdan kichik bolalar soni esa 2022- yil 1- yanvar holatiga Respublikada jami 4771951 ta 18 yoshdan kichik bolali, oilalar mavjud. Hududlar kesimida, Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 535986 tani tashkil etadi. Bu raqamlar albatta ijobiy. Biroq bu ko'rsatilgan raqamlardagi bolalarning holatlari, ta'limi, tarbiyasi, " o'zligini" shakillantirish borasidagi, ota - ona munosabatlari turlicha bo'lishi, ayrim bolalarning bu boradagi vaziyatlari hatto salbiy ham bo'lishi mumkun. Shu masalalar haqida ham o'ylab ko'rish, o'rinli deb o'ylayman. Davlat miqiyosida bolalarga e'tibor qaratish, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bilan belgilanadi. Xosh! Bugungi yosh ota-ona, farzand tarbiyasi, ta'lim, va bolalarning fitratini qanday shakillantirmoqdalar? Bu savollarga javob topish uchun bir bor, yon atrofimizga qaraylik, holatlar va vaziyatlarni kuzataylik, javob o'z - o'zidan kelaveradi. Umuman olganda yurtimizda bolalar qaratilgan ijtimoiy siyosat e'tiborga loyiq, buni jahon hamjamiyati ham tasdiqlamoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama yetuk voyaga yetishlari uchun, davlat siyosati bilan birgalikda, ota- ona ham ma'suliyatli bo'lishlari kerak. Bu o'rinda tarbiya tizimiga ham urg'u berish lozim. Tarbiya keng ma'noda butun ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Ko'plab ilmiy kitoblarda, insonning shakllanishi uchun "tarbiya", " irsiyat", "muhit" ta'siri alohida ta'kidlanadi. Shu uch omilning ichida tarbiyaning ro'li, ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi. Ammo tarbiya ta'sirining

kuchi va natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Tarbiya " arabcha" so'z bo'lib, o'stiradi, rahbarlik qiladi, isloh qildi degan ma'nolarni bildiradi. Tarbiya - inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi va eng kuchli vosita sanaladi. Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakillantirishga qaratilgan amaliy jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlashi yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yeg'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng abadiy qadiriyaatdir. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadiriyaatlar " tarbiya", tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Shu o'rinda bola shaxsiyatining rivojlanishida naslning ta'siri ham muhim hisoblanadi. Naslning ta'siri deganda, ota-onadan, bolaga meros bo'lib o'tadigan jismoniy xususiyatlar tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terining rangi, bo'y-basti, shuningdek tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati va boshqa xususiyatlar tushuniladi. Nasl pokiza va ota-ona ma'rifatli, axloqiy bo'lsa, bu tabiiy ravishda bolaga o'tadi va kelajakda komil insonga aylanadi. Bola kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhit. Umuman olganda oila muhiti va ijtimoiy muhit, ham bola shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindoshlarini ko'radi. Bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Ijtimoiy muhit, ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar, insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida insonlar hayotga



va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Jamiyatda ma'naviy muhit yaxshi, adolat ustuvor bo'lsa, inson faoliyatiga ijobiy, aksincha bo'lsa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bolaning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya, nasl va muhit muhim hisoblanadi. Bola tarbiyasi o'ta ma'suliyatli jarayon. Biz ta'lim-tarbiya deganda o'qib-o'rganishni tushunamiz, boshqacha aytganda ta'lim-tarbiyani o'qib-o'rganishnidani iborat deb o'ylaymiz. Lekin shu o'rinda erta tarbiya maktabgacha o'qib-o'rganishnidani avvalgi bosqichdagi jarayon. O'z vaqtida erta ta'limga va tarbiyaga e'tibor berish o'ta zarur jarayon bo'lib, buni tashkil etadigan shaxslar ota-onadir, ulardan o'zga kishi emas. Bu jarayonda ota-ona masuliyatli, bilimliy va sabirli bo'lishlari kerak. Bolalar fitrati doimo sof va pokiza bo'ladi. O'z botinidagi jo'shqin ruhni yuzaga chiqara olmagan bola bir muddat o'tib shaxsiyatning nimaligini ham unutadilar. Bugungi kunda ota-onalar farzandlarining shaxsiy rivojlanishiga rahbarlik qilish o'rniga, ularni o'zlari o'ylab topgan qoidalar ichiga qamashga urunmoqdalar. Bolalar shaxsiyatini to'g'ri shakllantirish uchun quydagilarga ahamiyat qaratishimiz lozim. Demak:

- agar bolani har doim tanqid qilinsa, u yomon ko'rishni o'rganadi;
- agar bola janjalda yashasa, agressiv bo'lishni o'rganadi;
- agar bolani ustidan kulsangiz, u yopilib qoladi;
- agar bolaga ta'na qilsangiz, u ayib hissi bilan yashashga o'rganadi;
- agar bola chidamlilikda yashasa, u boshqalarni qabul qilishni o'rganadi;
- agar bola to'g'ri, halollikda yashasa adolatli bo'lishni o'rganadi;

-agar bola xavfsizlikda yashasa, boshqalarga ishonchni o'rganadi;

-agar bolani qo'llab-quvvatlasangiz, u o'zini qadirlashni o'rganadi;

-agar bola tushunish va do'stona munosabatda yashasa, u bu dunyoda baxt topishni o'rganadi.

Farzandlarimizga nima bersak ham mehr va baxt bilan berishimiz kerak. Ko'plab tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki kichik bolalar murakkabroq narsalarni, kattalar o'ylaganidan ko'ra yaxshi farqlay olishga qodir bo'lishadi. Lekin shunday vaziyatlarni mohiyatini bilmagan, ayrim yosh ota-onalar farzandlarining erta rivojlanishiga e'tibor bermasdan katta xatoga yo'l qo'ymoqdalar.

"Sony" kompaniyasi asoschilaridan biri Masaru Ibuka" Uchdan keyin kech" kitobida quydagi nazariyani ilgari suradi: "Bolaning shaxsiyati, fe'l-atvori, uning tarbiyasiga bog'liq. Bola 3 yoshgacha davrida tarbiya qilishda eng zaruri ota-onaning izchil xatti-harakati deb o'ylayman. Ko'pincha ota-onalar farzandingizga ortiqcha qattiqqo'lmiz deb o'ylaydilar yoki aksincha unga achinib "u axir kichkina" deb bolaning aytganini qiladilar. Ularning bu harakatlari bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har qanday fikr-mulohazalarni tushunmaydigan yosh bolaga ko'p marotaba takrorlash orqali to'g'ri xulq-atvorni singdirish haqida o'ylash darkor". Bola nega aynan o'zini bunday tutish kerakligini anglamaydi, ammo g'ayrushuriy tarzda atrofda to'g'ri misollarni ko'rib insoniylikning asosiy qoidalarini o'rganadi. Bizning ayrim oilalarimizda ham shunday "hali kichkina" degan fikr ildizlari bor. Bola qancha erta ko'p narsani anglasa, o'rgansa, bilsa uning rivojlanishi shu qadar izchil bo'ladi. Bu



jarayon ota-ona yordamida amalga oshadi. Bolalar oiladagi barcha ma'lumotlarni 5 yoshidan boshlab qabul qila boshlaydi deyiladi, ayrim bolalarda bu davr bundan ham ertaroq rivojlanishi mumkin. Bola ruhiyati juda sirli va qiziq. Bolalarning o'zini anglashi uning o'zi haqidagi fikri juda yoshlik payitidannoq shakllana boshlaydi. 7- 8 yoshida u o'zini qadiyatli va mustahkam his etadi. Bu ularning ruhiyatida nomoyon bo'ladi. Bolaning tevarak-atrofga bo'lgan munosabatiga va o'zini tutushiga qarab uning o'ziga bo'lgan ishonchi o'zi haqidagi fikri takomillashib boradi. Ammo uning o'sish jarayonida bu fikr o'zgarib ham turadi. Biroq aytish joyiz, poydevor juda yoshlik payitidannoq shakllana borishini unutmashimiz lozim. Aynan shu ma'noda, tarbiyada muhim jihat hissiyotda o'ziga hoslik va harakatlarda tartib-intizomdir. Kelajakka ishonch bilan qaraydigan bola o'zidan ijobiy nur chiqaradi, va o'ziga insonlarni chaqiradi. Agar siz farzandingizga o'zini baxtli, sevimli deb his qilishiga ko'mak bersangiz, bu o'z-o'zidan boshqalarni ohangrabodek torta boshlaydi. Bola tarbiyasida arzimas dek tuyiladigan vaziyatning o'zi yo'q. Tassavur qiling uyingizdagi mevaliy daraxtning mevasini o'zingiz is'temol qilasiz. Farzand tarbiyasi ham shunday jarayon oxiridagi mahsuli o'zimiz uchun. Shunday ekan, hozirgi shiddatli rivojlanishi davrida voyaga yetayotgan farzandlarimiz tarbiyasi va ta'limiga masuliyat bilan qaralsa, chetdan kirayotgan biz uchun g'oyat begona bo'lgan g'oyalar ularni o'z girdobiga torta olmaydi. O'ta-ona o'z farzandiga:

- har qanday qiyinchlikni yengib o'tishga;
- o'z sog'lig'ini saqlashga;
- do'st topish va do'st bo'lishga;
- o'ziga bo'lgan ishonchga;

-masuliyatli va o'zidan qoniqib hayot kechirishiga o'rgatmog'i zarur.

Bola ishonch tuyg'usini his qilmasdan shaxsiyatini nomoyon qilmaydi. Demak, bolaning kamolotga yetishiga erta tarbiya, ta'lim, nasl va muhit o'ta zarur hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Jadidchilik" maktabida ham tarbiyaga asoslangan ta'lim yo'li tanlangan. Jadidchilik maktabi talablari tarbiya, ilm va ma'rifat yagona vosita bo'lib, ular aynan shu vositalar bilan o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun kurashganlar. Bundan ko'rinadi, deyarli barcha davrlarda tarbiya, ta'lim va bular orqali erishiladigan ma'rifatga, ehtiyoj sezilgan. Tarbiya jarayonida bizni o'rab turgan ijtimoiy muhitning o'rni ham ahamiyatli. Bugungi kunda bolaning ruhiy rivojlanishini kuzatgan psixologlar (L. S. Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.Vallon, J. Piajen va boshqalar) ning aniqlashicha, bola kamol topishining o'ziga xos xususiyatlarga asoslanga (senzitiv- qulay) davrlari mavjud bo'lib, ular bolaning o'zi yashab turgan muhitda (oila, bog'cha) tutgan o'rni, bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari, holatlari, shaxsi va ongining o'sish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Bolaning 1 yoshdan 3 yoshgacha o'sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatleri, xarakter xislati, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabati, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi pisixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Ota-ona bolaning har bir rivojlanish davrida, o'ta ziyrak bo'lishlari kerak. Bu tarbiyaning omillaridan biri. Tarbiya - bolaning fitratini, mijozini kashf qilish va uni cho'chitmasdan, tashvishga solmasdan rivojlantirish san'atidir. Farzandlariga ota-



ona, quydagi vaziyatlarda yordam berishlari muhim:

- o'ziga to'g'ri baho berishga;
- maktabdagi fanlarni o'zlashtirishga;
- o'zini namoyish qilishda va hayotidagi baxtga kalitni topishga.

Agar ota-ona bolasi asabiylashayotganda, mehribon va xotirjam bo'la olsa, bu muammoning katta qismini hal qiladi. Darhaqiqat, bunday vaziyatda bola tinchlanish uchun xotirjamlikni saqlay oladigan kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladi. Bugungi kunda, ota-ona bolalarining qiziqishlarini ham o'zlari nazorat qilmoqdalar. Zamonaviy kasblarga, farzandlari qiziqmasalar ham yo'naltirmoqdalar. Yoki o'zlarining armonlarini bolalarida ko'rishni istab, ularning qiziqishlarini qarshi chiqmoqdalar. Bunday vaziyatlar jamiyatda o'z kasbini yaxshi ko'ruvchi mutaxassislarni kamayishiga olib kelmoqda. Haqiqiy o'zligini yashagan bola, faol boladir. Agar biror bola hali bolalikdanoq ota-onasi tomonidan siquv va bosimlar ostida qolgan bo'lsa yoki haddan ortiq suyak, erkalangan bo'lsa, bu bolaning shaxsiyati zayiflashgan demakdir. Har bir bola fitratida uning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi haqidagi sirlarni qamrab olgan "bolalik siri" bordir. Bu sir yo'l ko'rsatuvchi o'laroq bolaning shaxsiyati va xarakterini shakllantirishda kattalardan vazminlik, sabr-toqat talab qilinadi. Bolaning asl o'zligini yuzaga chiqarish uchun "bahs maydoni"ni vujutga keltiriladi. Bolaning xarakteri ota, shaxsiyati esa ona ta'sirida shakllanadi. Muxtasar aytganda, biz o'zligimizga ega xalqimiz, tarbiya borasida ham o'ziga xos yo'nalishlarimiz mavjud. Lekin zomonaviylashuv, modernizatsiyalash g'oyalari ta'sirida o'z qadiriylarimizni, tarbiyaga oid madaniy

qarashlarimizni unutmoqdami. Bu ayanchli hol. Shuni unutmaylik, biz boy tarbiya qadiryatiga ega xalqimiz. Bu tushunchani barchamiz yodimizda saqlashimiz lozim. Ma'suliyatli bilan tarbiya qilingan bolalar, albatta yurt farovonligi uchun xizmat qila oladi. Yuqorida aytilganidek, har bir bola noyoblikka ega. Bolani odatdagidek qabul qilish va uni boshqalar bilan taqqoslamaslik kerak. Shuni aytib o'tish o'rinli, farzandlarimizni qanday inson bo'lib, hayotga kirib borishi bu ularga berilayotgan tarbiyaga bog'liqligini, aslo unutmaylik.

Xulosa: Bizning xalqimiz juda bolajon. Lekin goh-gohida farzandlariga shavfqatsiz munosabatda bo'layotgan ota - onalar haqida eshitamiz. Bu esa " Yangi O'zbekiston" uchun ayanchli hol. Shunday emasmi!

Farzandlarini pulga sotayotgan, onalarning hayot qiyinchliklarini ro'kach qilayotgan hikoyalarini eshitamiz. Har bir ayolga onalik baxti nasib etar ekan, manashu farzandlarini, omonatlarni, asrashni ularga chiroyli tarbiya berish, ma'suliyatini ham anglamoqlari zarur. Biz ming yillik an'analar va qadiryatlar ustuvor bo'lgan zaminda yashamoqdami. Lekin shunga qaramay globallashuv davridagi turli g'oyaviy tahdidlar ham bizga xavf solayotganligi ayni haqiqat. Tarbiya asnosida kitoblarga murojat qilish, bolalarni kitoblarga qiziqtirish, eng asosiysi. Dunyoda 80% dan ortiq ota-ona, farzandlariga kitob olib bermas ekanlar. Bu ayanchli hol. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1976 yil Tehronda savodsizlikka qarshi kurash bo'yich konferensiya o'tkazildi. Konferensiyada bolalar bilan, tug'ulishlari zaxoti tarbiya va ta'limga e'tibor qaratilsa, bilimsizlikni bartaraf



etish munkun degan umumiy fikrga kelingan edi. Har qanday davrda bolalarga bo'lgan, e'tibor yuqori bo'lib qolaveradi. Chunki bolalar har bir davlatning kelajagini ta'minlaydi. Yurtimizda deyarli barcha sohalarda jadal islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan tarbiya va ta'lim jarayoni bundan ham mustasno emas. Muxtaram yurgboshimiz, Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvlarida quydagi gaplari, meni juda ta'sirlantirgan "Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman. Meni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi bir so'z bilan aytganda dunyoqarashlari bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarimoqda. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim? - bu albatta yoshlardir. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni payitda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga

nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", degan edilar. Shu asnoda tarbiya fanlarini maktablarda tashkil etish bo'yicha topshiriqlar belgilangan edi. Tarbiya fani, 2020- 2021- o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etildi. Biroq natijalar qanday. Ayrim maktablarda bu fanga jiddiy qaralmayotganligiga ham guvoh bo'lmoqdamiz. Jamiyatda yuz berayotgan har bir islohotlarga, yuzaki qarash natija bermaydi. Islohatlarga ma'suliyat bilan boqish kerak shunda ko'zlangan natijaga erishiladi. Bu borada ta'lim, tarbiyaga ham shunday ma'suliyat bilan boqish lozim. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy aytganlaridek, " Tarbiya biz uchun yo hayot-yo momot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasi" dir. Har bir inson qalbida bolalik siri yashiringan bo'ladi. Biroq, kimdadir bu sir ijobiy bo'lsa, yana kimda salbiy. Shunday ekan ona sifatida farzandlarimizga ma'suli ekanmiz, ularni mehr, baxt, ishonch bilan voyaga yetkazaylik. Shuni aslo unutmaylik hurmatli ota-onalar tarbiya, kamolotga yetishning ma'naviy kalitidir. Buni aslo unutmaylik.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev "Yani O'zbekiston Strategiyasi" 2021 yil.
2. E.G' G'oziev "Ontogenez psixologiyasi" 2020 yil.
3. Z.Nishonova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish marodlari" 2006 yil.
4. " Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti kursi bo'yicha qo'llanma" O'z MU 2017 yil.
5. J. Kexo, N. Fisher " Bolalar tafakkur qudrati" 2021 yil.
6. A. Gunesh " Farzand tarbiyalash siri" 2022 yil.